




**2021- yil yanvar-avgust
oylarida Toshkent viloyatida
xizmatlar sohasining
rivojlanishi**

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi - milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilmalilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqt ni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **12 621,7 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **2 756,8 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,2 %ni** tashkil etdi.

**Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)**

**12 621,7 mlrd.
so'm**

116,2 %

**2 756,8 mlrd.
so'mga**

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi


2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning avgust oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **153,5** mlrd. so'mga o'sdi va **1 721,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **59,0** mlrd. so'mga kamaygan va **1 153,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning iyul oyiga nisbatan joriy yilning avgust oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **94,7** mlrd. so'mga o'sdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning iyul oyiga nisbatan 2020- yil avgust oyida xizmatlar hajmi **100,3** mlrd. so'mga kamaygan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-avgust oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Xizmatlar - jami	12 621,7	116,2
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	399,0	131,8
Moliyaviy xizmatlar	1 760,9	113,9
Transport xizmatlari	3 025,3	115,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 831,8	112,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	468,1	110,5
Savdo xizmatlari	4 184,7	110,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	411,8	131,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	294,6	130,7
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	256,0	150,6
Ijara xizmatlari	388,0	123,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	263,2	116,1
Shaxsiy xizmatlar	365,8	125,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	453,0	124,8
Boshqa xizmatlar	351,3	124,2

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan past ko'rsatkich



Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Savdo xizmatlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **33,2 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar transport (**24,0 %**), moliyaviy xizmatlar (**13,9 %**), shuningdek, yashash va ovqatlanish xizmatlarida (**3,7 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **2,0 %**ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **34,1 %**ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ulushi eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,5 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatda texnik jihozlanish darajasining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqueqa.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida yuqori o'sish sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (**50,6 %**), aloqa va axborotlashtirishda (**31,8 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (**31,1 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**30,7 %**), shaxsiy xizmatlarda (**25,0 %**), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**24,8 %**), ijara xizmatlarida (**23,6 %**), shuningdek, kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda (**16,1 %**) qayd etildi.


Buning sababi, korxona va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklowlarni yumshatilishi bilan bog'liq.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi savdo xizmatlarda (**10,4%**) sohasida qayd etildi.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, %da



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **134,3 %**.

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan – **27,9 %**.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **33,2 %**ni tashkil etib, bu esa **4 184,7 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ularning hajmi **3 368,5 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **34,1 %iga** to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

3 368,5

**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**

4 184,7

100,1

O'sish sur'ati, % da

110,4

2020- y. yanvar-avgust




2021- y. yanvar-avgust

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i **69,5 %**ini tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)**



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **71,4 %**ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-avgust oylarida)

2021- yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 760,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida ularning hajmi **1 503,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiylar hajmidagi ulushi **13,9 %**ni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **15,2 %**ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **257,7** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **13,9 %**ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ularning o'sish sur'ati **134,3 %**ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,2 %**ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **5,2 %**ini tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **3,6 %** oralig'ida qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-avgust oylarida)**



**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmning **89,6 %**ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **8,2 %**.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **2,2 %**ga to'g'ri kelgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)

O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **399,0** mlrd. so'm darajasida belgilandi.


2020- yilga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati **131,8 %**ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-avgust oylarida ushbu xizmat turi hajmi **297,7** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiyligi hajmining **3,0 %**iga teng bo'lgan.
O'sish sur'ati esa **133,3 %**ni tashkil etgan.

Hajmning o'sishi



Xizmatlar hajmi

Jami hajmdagi ulushi


2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **89,5 %**ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %da

**2020- y.
yanvar-avgust**



**2021- y.
yanvar-avgust**



█ **Telekommunikatsiya xizmatlari**

█ **Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

█ **Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**

█ **Noshirlik xizmatlari**

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **89,3 %**ni tashkil etgan.


2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lif va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamонавиј ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar



2020- yilga nisbatan o'sish sur'atlari

2020- y. yanvar-avgust

2021- yilning yanvar-avgust oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **294,6 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiyligining **2,3 %**ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-avgustiga nisbatan o'sish sur'ati **130,7 %ni** tashkil etdi.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

**363,5
mlrd. so'm**

**2020- y.
yanvar-avgust**

**468,1
mlrd. so'm**

**2021- y.
yanvar-avgust**

77,6 %

110,5 %

Xizmatlar hajmi


O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **104,6** mlrd. so'mga ortgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2021- y. yanvar-avgust

2020- y. yanvar-avgust



**Yashash bo'yicha
xizmatlar**



**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar**

2021- yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **83,6 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **86,8 %**ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust


Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalar, kosmetologiya klinikalar, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

256,0 mlrd. so'm	2,0 %	150,6 %
-----------------------------------	--------------	----------------



**2021- y.
Yanvar-avgust**




**Xizmatlar
hajmi**

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

**O'sish
sur'ati**

**2020- y.
Yanvar-avgust**



**149,3
mlrd. so'm**

1,5 %

72,1 %

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-avgust oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da	
		2021- y.	2020- y.
Toshkent viloyati *)	12 621,7	116,2	100,2
<i>shaharlar :</i>			
Nurafshon	514,8	114,3	114,0
Olmaliq	886,0	117,4	96,2
Angren	800,2	112,1	86,6
Bekobod	590,3	113,6	96,3
Ohangaron	257,0	119,2	94,8
Chirchiq	1 018,5	114,0	101,6
Yangiyo'l	577,8	118,4	99,0
<i>tumanlar :</i>			
Oqqo'rg'on	324,4	111,7	99,5
Ohangaron	183,7	107,3	100,6
Bekobod	359,6	111,5	99,6
Bo'stonliq	769,5	120,3	95,4
Bo'ka	343,2	115,3	98,6
Quyi Chirchiq	246,0	114,8	100,1

**) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-avgust oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Zangiota	1 262,6	127,0	100,4
Yuqori Chirchiq	496,4	116,1	100,3
Qibray	1 273,6	114,3	97,6
Parkent	491,0	118,8	100,2
Piskent	192,6	115,4	99,4
O'rta Chirchiq	422,7	111,9	100,1
Chinoz	348,9	111,1	81,4
Yangiyo'l	581,1	113,6	100,2
Toshkent	681,8	119,6	92,5


2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %da (2021- yil yanvar-avgust oylarida)



2021- yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Qibray tumanida qayd etildi – **10,1 %** (2020- yilning yanvar-avgust oylarida – **10,3%**). Aksincha, eng past ko'rsatkichlar Ohangaron va Piskent tumanlarida – **1,5 %** (2020- yilning yanvar-avgust oylarida – **1,5 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

**4 227,2
ming so'm**



Hajmnning o'sishi

**884,6
ming so'mga**

O'sish sur'ati

114,9 %

2021- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 227,2** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati **114,9 %**ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **3 342,6** ming so'mga to'g'ri kelgan.

2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **98,7 %**ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**Xizmatlar
sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan
korxona va
tashkilotlar soni**



**2020- yilning
mos davriga
nisbatan ular
sonining o'sishi**


**Ularning
umumiyligi
sonidagi
ulushi**

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **62,2 %**, sanoat **18,6 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **11,5 %**ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **7,7 %**ga to'g'ri keldi.

**2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **61,4 %**ni, sanoat **19,0 %**ni, qurilish **7,8 %**ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **11,8 %**ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**45,7 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **12,0 %**ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **5,5 %**ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,1 %**ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **2,6 %**ni tashkil etdi.

Savdo – 45,7

Boshqa turdagি xizmatlar – 32,1

Yashash va ovqatlanish – 12,0

Tashish va saqlash – 5,5

Sog'liqni saqlash – 2,6

Axborot va aloqa – 2,1


2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-avgust oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **71,0 %**ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **57,5 %**ga to'g'ri keldi.

**1- sentabr
holatiga**

2020- y.

2021- y.

57,5 %

55,9 %